

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHNING NOAN’ANAVIY USULLARI

Axmedova Xurshidaxon Mamurjonovna

Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumani 43-umumiy

o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarga atrofdagi olam haqida dastlabki ma’lumotlar berish, bu jarayonda o‘quvchilarining tabiatga moslashishi, unda beriladigan bilimlarning bosqichmabosqich amalgaga oshirilishi, o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi, ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarini uyg‘unlashtirish, darslarni tashkil etish, o‘quvchilar shaxsiga individual va umumiy yondashish, o‘qitish metodikasini takomillashtirishning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, tabiiy fanlar, o‘qitish, tabiat, o‘quvchilar, innovatsiya, zamonaviy ta’lim, pedagogik texnologiya, dars, shakl, metod, vosita, ilm, ijod, faoliyat.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’rifiy sohalarda xalqaro standartlarga javob beradigan, yuqori malakali va kreativ fikrlaydigan kadrlar tayyorlashga qaratilgan islohotlar amalgaga oshirilmoqda. Bu kadrlar, o‘z navbatida, mustaqil qarorlar qabul qila olishlari va intellektual salohiyatini namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlanadi. Shunday qilib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, yuqori sifatli kadrlar tayyorlashga bog‘liq bo‘lib, shu sababli yangi O‘zbekistonning dastlabki kunlaridan boshlab, xalqaro andozalar asosida milliy kadrlar tayyorlash tizimi ishlab chiqilishi vazifasi qo‘yildi [1].

O'quvchilarning o'quv faoliyatini individual yondashuvlar orqali rivojlantirish, ayniqsa, bugungi ta'lif tizimida dolzARB masalalardan biridir. Bu masala har bir ta'lif bosqichida o'ziga xos tarzda hal qilinishi kerak. O'quvchilar o'zlariga xos ko'rsatkichlar bilan farq qilishadi, shuning uchun boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda, ilmiy tushunchalarni o'quvchilarga mos ravishda, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllantirish muhimdir. Bu jarayon, o'quvchilarni nafaqat bilim, balki kreativ fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga ham o'rgatadi. Shuningdek, o'quvchilarni tabiatni sevishga, unga e'tibor bilan munosabatda bo'lishga va uning resurslaridan oqilona foydalanishga o'rgatish ham dolzARB masalalardan biridir. Tabiatga bo'lgan hurmatni shakllantirishda, umumiy tarbiyaning o'z maqsad va vazifalari belgilab olinishi kerak. Bu jarayonda tabiatni asrash, jonli va jonsiz tabiatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rGANISH va o'quvchilarga ulardan to'g'ri foydalanish zarurligi tushuntirilishi kerak [2].

Atrofdagi olam bilan tanishish bo'yicha materiallarni o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ular har tomonlama etuk shaxslar sifatida rivojlanishi uchun ta'limiY, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar amalga oshiriladi. O'quvchilarga o'z qishlog'i, shaharlari va atrof-muhit misolida jamiyat hayoti bilan tanishish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayonda o'quvchilarning tabiatga oid ilk invariant va variativ tushunchalari shakllantiriladi. Ularni tabiat bilan tanishtirishda, tabiatda yuz beradigan voqealar, hodisalar, o'simlik va hayvonot olamingning roli juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda, o'quvchilarga tabiatga oid dastlabki ma'lumotlar berishdan oldin, ularning tushunchalari bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Dastlab, o'quvchilarga atrof-muhit bilan bog'liq asosiy tushunchalar yetkaziladi va bu tushunchalar sekin-asta tabiat hodisalariga, o'simlik va hayvonot olamiga bog'lanadi. Shuningdek, bola psixologiyasini inobatga olgan holda, uzbekligi bo'lmagan tushunchalarni to'g'ridan-to'g'ri berish murakkab bo'lishi mumkin. Maktab muhitiga moslashish jarayonida o'quvchilarga atrofdagi olamga oid

tushunchalarni takomillashtirib, ular asta-sekin tabiat bilan bog'lanadi, bu esa o'quvchilarning o'rganish jarayonini osonlashtiradi va samarali bo'lishini ta'minlaydi [4]. Shu tariqa, boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ilmiy tushunchalar bosqichma-bosqich o'quvchilarga singdirilib boriladi. Bu jarayon birinchi sinfdan boshlanib, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi sinflarda kengayib, chuqurlashadi. Dastlabki bosqichlarda, birinchi va ikkinchi sinflarda o'quvchilarning xotira, fikrlash, mushohada va tasavvur qilish ko'nikmalarini yosh xususiyatlariga mos ravishda tor doirada bo'ladi. Shuning uchun beriladigan bilimlar sodda va hayotiy tarzda, darslik materiallarini tushunishga qaratilgan bo'ladi.

Bu davrda o'quvchilarga quyidagi tushunchalar beriladi:

- O'quvchilarning atrofida bo'layotgan oddiy voqeа-hodisalar, maktabning nima ekanligi, sinf xonasi va dars jarayoni haqidagi tushunchalar;
- O'ila va mahallaga bo'lgan munosabatlar orqali o'quvchilarga jamiyatga nisbatan oriyentatsiya berish, ko'chada to'g'ri harakatlanish va shaxsiy gigiyena, kun tartibi haqida tushunchalar;
- Ilk tabiatdagi o'zgarishlar, quyosh, ob-havo ta'siri, havo harorati, kun qismlari, fasllar, o'simliklar va hayvonlar haqida ma'lumotlar;
- O'simliklarning qismlari, o'sishi, gullar va ularning parvarishi, bog' va mevalarni etishtirish haqida;
- Biz foydalanadigan narsalar, uydagi jihozlar, kompyuterning ishlatalishi va bolalar uchun zararli tomonlari;
- O'lkamizning tabiat, suv manbalari, uning tabiatda qanday paydo bo'lishi haqida;
- O'quvchilarga shaxsiy va ijtimoiy atrof-muhitni tushunishga o'rgatish, shuningdek, yashil dorixona, tabiat va shahar haqida ilk variantiv tushunchalarni shakllantirish.

Bularning barchasi o‘quvchilarga dastlabki, oddiy bilimlarni berib, tabiat bilan tanishtirish orqali, ularda fanga nisbatan qiziqish va faoliyatni oshirishga xizmat qiladi. Darslar o‘tish jarayonida, bu tushunchalar o‘quvchilarning ongida mustahkamlanadi, ularga tabiat va atrof-muhitni chuqurroq tushunish imkonini beradi, bu esa ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Maktab ta’limi o‘quvchi hayotining muhim bir bosqichini tashkil etadi. Bu davrda o‘quvchi shaxs sifatida shakllanadi va bu jarayonni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari katta ahamiyat kasb etadi. Ularning mas’uliyati, salohiyati va bilimlari ayniqsa muhim. O‘qituvchilar o‘quvchilarga tabiiy fanlar orqali tabiatni asrab-avaylash, uning resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, inson salomatligi va tabiat bilan uyg‘un munosabatda bo‘lish haqidagi tushunchalarni singdirishlari kerak.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarga tabiatning turli jahbalarini tanitish, uning boyliklarini tushuntirish, foydali qazilmalar va ularning iqtisodiy ahamiyatini o‘rganish uchun dars soatlari ajratilgan. Tabiiy fanlar, asosan, tabiiy hodisalarini o‘rganib, tajribalar orqali tekshirish va umumlashtirilgan nazariya yoki amaliy bilimlarni yaratishga qaratilgan fanlar bo‘lib, o‘quvchilarga tabiatning mohiyati va uning inson hayoti uchun ahamiyatini chuqur tushunishga yordam beradi. Bu o‘qitish jarayoni o‘quvchilarga o‘zlarining bilimlarini kengaytirish va tabiatga bo‘lgan mas’uliyatli munosabatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich 1-2-sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarga dastlabki tushunchalar beriladi. Bu davrda darslarni boshqa fanlar bilan bevosita bog‘lab o‘tish zarur, chunki bu usul o‘quvchilarga yanada kengroq va izchil tushuncha hosil qilish imkonini beradi. Misol uchun, tabiatda o‘zini tutish qoidalari, gullarni uzmaslik, daraxt shohlarini sindirmaslik kabi oddiy, ammo muhim qoidalar xalq pedagogikasiga asoslanib, tarbiya darslari orqali tushuntiriladi. Bu esa, o‘quvchilarga tabiatga hurmat bilan yondashishni o‘rgatishda samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich 3-sinflarda tabiiy fanlar yanada takomillashtiriladi va o‘quvchilarga atrofdagi tabiatni o‘rganish, undagi jismlar, tuproq, suv, havo, foydali qazilmalar, o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida bat afsil tushunchalar beriladi. Masalan, foydali qazilmalar haqida o‘quvchilarga ularning davlat iqtisodiyotidagi ahamiyati va noo‘rin foydalanishning oqibatlari tushuntiriladi. Tabiiy gazning isrof bo‘lishi, uning zaxiralari tugab qolishi mumkinligi haqida ogohlantirishlar beriladi.

Boshlang‘ich 4-sinflarda esa tabiiy jarayonlar bilan bog‘liq o‘quv materiallari taqdim etiladi. Bu jarayonda o‘quvchilarga tabiatni muhofaza qilish, ekologik masalalar haqida mustaqil ishlar, ko‘rgazmalar, she’rlar va hikoyalar orqali bilimlar beriladi. O‘quvchilarga tabiatni himoya qilishga oid davlat qonunlari, "Qizil kitob" kabi tushunchalar muntazam ravishda tushuntiriladi.

O‘quvchilarga atrof-muhitni muhofaza qilish va uni saqlashga oid bilimlarni to‘g‘ri singdirish jarayonini besh asosiy fazaga bo‘lish mumkin:

1. Dunyo moddiy bo‘lib, murakkab bog‘lanishlar tizimidan iboratdir, uning elementlaridagi o‘zgarishlar o‘zaro bog‘liq va tizimlashtirilgan.
2. Tabiatni muhofaza qilishda dunyoning moddiy qonuniyatları va ularning o‘zaro ta’sirini ifodalaydigan dasturlar va o‘quv qo‘llanmalari zarur.
3. Insoniyat va jamiyat jonli tabiat evolyutsiyasining natijasi sifatida, tabiatning ajralmas qismi ekanligini tushuntirish.
4. Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zgarishlar va munosabatlarning boshqarilmasligi yoki taraqqiyotning ilmiy-texnik jihatdan asoslanmaganligi.
5. Tabiat jamiyatning rivojlanish tezligiga ta’sir etishi, ammo uning munosabat xarakteriga ta’sir ko‘rsatmasligi.

Bu tushunchalar va bilimlar o‘quvchilarni nafaqat tabiiy jarayonlar haqida, balki tabiatni muhofaza qilishga mas’uliyatli yondashishni ham o‘rgatishga yordam beradi. Bu jarayon, tabiiy fanlar orqali o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Metodologik asoslardan kelib chiqqan holda, o‘quvchilarga

ekologik ongni shakllantirish va atrof-muhitni himoya qilish haqida ilmiy asoslangan tushunchalar berish muhimdir. Ekologik muammolarni tushunib yetish va buni zamonaviy ta'limda o'rganish, o'quvchilarga nafaqat tabiatni himoya qilishni, balki uni yaxshilashni ham o'rgatishda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon ekologik madaniyatni rivojlantirish va ijtimoiy mas'uliyatni o'rganishda mustahkam poydevor yaratadi.

Tabiatga oid ilk invariant va variantiv tushunchalarni berish orqali o'quvchilarni ekologik bilimlar bilan tanishtirish zarur. Bu bilimlar o'quvchilarga ekologik muammolarni ilmiy asosda tushunishga yordam beradi, shuningdek, tabiatning o'zaro aloqalarini anglashga imkon yaratadi. Bu orqali o'quvchilar ekologik jihatdan sog'lom muhitni yaratish uchun qanday harakatlar qilishlari kerakligini anglaydilar. Atrof-muhitni himoya qilish ta'limoti ekologik ongli shaxslarni shakllantirishda asosiy vosita bo'lib, bu faqat ekologik jihatdan yuqori madaniyatga ega bo'lgan jamiyat tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Jamiyatning rivojlanishi va ekologik barqarorligi o'quvchilarning tabiatga nisbatan yondashuviga, uning o'zgarishini tushunishga va unga munosabatda bo'lishga bog'liq. O'quvchilarga ijtimoiy foydali mehnatning ahamiyatini tushuntirish, ekologik ongni shakllantirishda muhimdir. Tabiat komponentlarining o'zaro aloqadorligini bilish orqali o'quvchilar bu muhim tushunchalarni o'zlashtiradilar. Bu jarayonning samarali bo'lishi uchun, o'quvchilarga doimo mustaqil ravishda ijodiy va mustaqil ishlar berish, ularning yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish kerak. O'quvchilarni amaliy ishlarda qatnashishga, atrof-muhitni himoya qilishga o'rgatish, ularning ekologik bilish faoliyatini mustahkamlashda eng samarali usuldir.

Didaktik va ijodiy o'yinlar, o'z-o'ziga xizmat qilish va ijtimoiy foydali mehnat qilish orqali o'quvchilarning ekologik tushunchalari amaliy ravishda mustahkamlanadi. Shuningdek, o'quvchilarning tabiatga bo'lgan munosabatlarini rivojlantirish va ularga ekologik mas'uliyatni o'rgatish uchun muntazam ravishda ekologik ta'limni tashkil etish zarur. Bu esa nafaqat o'quvchilarning tabiatni sevishga,

balki unga mehr qo'yishga va uni asrab-avaylashga bo'lgan mas'uliyatini ham oshiradi. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ilk variantiv tushunchalarni shakllantirish, o'quvchilarga tabiatga oid bilimlarni samarali ravishda yetkazish uchun aniq tamoyillarga tayanishni taqozo etadi. Bu tamoyillar o'quvchilarning tabiatga bo'lgan tushunchalari va munosabatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Keltirilgan tamoyillardan ayrimlari:

1. **Tushunarli bilimlar:** O'quvchilarga o'rgatiladigan tabiiy bilimlar sodda, tushunarli bo'lishi kerak, shunda ular o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelmaslar.
2. **O'quv dasturiga moslik:** Tabiiy fanlar bo'yicha beriladigan tushunchalar o'quv dasturi mazmuniga mos bo'lishi zarur, shunda o'quvchilarning bilimlar tizimi izchil va samarali shakllanadi.
3. **Qo'shimcha vaqt talab qilmaslik:** Tanlangan materiallar o'quvchilarga o'rganish uchun qo'shimcha vaqt talab qilmasligi kerak, bu esa o'quv jarayonini soddalashtiradi va samarasini oshiradi.
4. **Qiziqarli bo'lishi:** O'quvchilarga taqdim etiladigan tabiiy fanlar materiallari yoshga mos bo'lishi va qiziqarli bo'lishi kerak, shunda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqlishi oshadi.
5. **Ilmiy va amaliy yo'nalish:** O'quv materiallarining ilmiy va amaliy yo'nalishga ega bo'lishi, ularni kundalik hayotda qo'llashga yordam beradi.
6. **Hududiy va umuminsoniy muammolarni o'quvchilarga yetkazish:** Darslik materiallari o'quvchilarga hududiy va umuminsoniy muammolarni tushuntirib berishga qaratilishi lozim.
7. **Ekologik, iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy uyg'unlik:** Tabiatga oid tushunchalar ekologik, iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy me'yorlar bilan uyg'un tarzda taqdim etilishi, o'quvchilarning ongli munosabatini shakllantiradi.
8. **Ongli munosabatni qaror toptirish:** O'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish, ularning tabiatga bo'lgan hissiy va mas'uliyatli munosabatlarini rivojlantirish kerak.

Tabiatga oid bilimlarni shakllantirish jarayonida, o‘quvchilarning ta’sirchanligi va hissiy rivojlanishiga alohida e’tibor berish kerak. Tabiatga bo‘lgan zavqlanish hissini shakllantirish, o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan qiziqishlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ekologik va ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi. Mashg‘ulotlar tabiat qo‘ynida o‘tkazilishi, sayr-sayohatlar va ekskursiyalar tashkil etilishi, o‘quvchilarga tabiatni yanada chuqurroq tushunish imkoniyatini yaratadi va hissiy charchoqni kamaytiradi. Bu tarzda o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan hissiy munosabati va ekologik ongini shakllantirishda muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Ahliddinov R. Hozirgi bosqichda pedagogik boshqaruvning dolzarb muammolari //Respublika ilmiy-amaliy konf. mat.-T.: O‘zPFITI, 2002. - 46 b.
2. Musayeva M.E. O‘quvchilarda tabiat ne’matlariga muhabbatni shakllantirish: p.f.n. diss. - T.: O‘zJTU, 2011. - 165 b.
3. Mirzaxmedova Sh.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari: p.f.n., diss.... - T.: O‘zPFITI, 2006. - 175 b.
4. Ma’murov B.B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-bilish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart - sharoitlari. Monografiya.- T.: “Nihol”, 2014. -94-b.
5. Muhammadiyev K.B. O‘quvchilarnn atrof-muhitga ehtiyyotkor munosabatda bo‘lishga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. -T.: Fan va texnologiya, 2014, 172 b.
6. Narbutaev H.B. Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS)